

## **DIVALKAK GAZKONDENSAT KONI TERRIGEN YURA KOMPLEKSINING MAHSULDOR VA NOMAHSULDOR GORIZONTLARINING KO‘RSATGICHLARI**

**Usmonov Kuvonchbek Mannonovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, katta o‘qituvchi,

**Raximov Sayfiddin Sodiq o‘g‘li**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, talaba.

**Annotatsiya:** Ispanli-Chanir ko‘tarilmasida terrigen yura yotqiziqlari bir qancha quduqlar orqali ochilgan bo‘lib, bu quduqlardan kern namunalari olingan va o‘rganilgan. Terrigen yura formatsiyasi bilan bog‘liq sanoqli uyumlar ochilgan bo‘lsada bu tektonik elementda terrigen yura kompleksini neftgazga istiqboli ekanligidan dalolat beradi.

**Kalit so‘zlar:** Divalkak koni, uyumlar, quduq, mahsuldor gorizont, pachka, karbonat, yura, rifogen kompleks, terrigen jinslar.

Divalkak konida o‘nta quduq burg‘ulangan bo‘lib, barchasidan kern namunasi olingan, matonat maydonida uchta quduq orqali terrigen yura yotqiziqlari ochilgan, jami kolonkoli burg‘ulab o‘tish 1542 pog. m ni tashkil qiladi. Bunda 1074,8 pog. m kern olingan.

Divalkak koni chegarasida ikkita mahsuldor gorizont ajratiladi: yuqori yura karbonat yotqiziqlarida XV-HP va o‘rta yura davrining terrigen yotqiziqlarida XVIII gorizont. XVIII gorizont o‘z novbatida to‘rtta pachkaga ajratiladi: XVIII-1, XVIII-2, XVIII-3 va XVIII-4, bu pachkalar quyidagi mustaqil hisoblash obyektini tashkil qilgan gazli qatlamlarni o‘z ichiga oladi: 12, 17, 18, 20, 21 va 24.

Qirqimning yuqori qisimi XV-HP, XV-P gorizontlar tog‘ jinslarining rifogen kompleksiga mansub, o‘rta qisimi – XV-ПP, XV-a, XVI gorizontlar terrigen jinslardan

tashkil topgan, quyi qisimi XVII, XVIII, XIX gorizontlar terrigen yotqiziqalaridan tashkil topgan.

**XVIII.** XVIII gorizont terrigen yotqiziqalari bir xil o'zgarimas tuzilishga ega va asosan to'q-kulrang, deyarli qora argillitlar, alevrolitlar, maydazarrali qumtoshlar, kulrang va ochkulrang, o'rta-yirik zarrali qumtosh va gravelit oraliq qatlamchalaridan tashkil topgan. Gazli qatlam turli zarrali qumtoshlardan iborat bo'lib, miqdori jihatdan yirik zarralilari ustunlik qiladi ularning tarkibiga grayelit zarrali va gravelitlar uchraydi. Bo'lakli materiallar asosan kvarts zarralari, jinslar bo'laklari, dala shpatlaridan iborat.

Pachka kesimida XVIII-2 pachkada – 12, XVIII-3 pachkada – 17, 18, 20, 21, XVIII-4 pachkada – 24 o'tkazuvchan jinslar qatlami uchraydi.

**XVIII-1.** XVIII-1 pachka bo'yicha kolonkali burg'ulab o'tish sakkizta quduq bo'yicha amalga oshirilgan (№1, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 1 Matonat), bu yerda kern olib burg'ulab o'tishning jami hajmi 20,78 pog. m ni tashkil qiladi. Bunda 166,3 pog. m kern namunasi olingan bo'lib, burg'ulab o'tishni 79,9% ni tashkil qiladi yoki umumiy ochilgan qalinlikni 12,9% ni tashkil qiladi.

XVIII-1 pachkasi bo'yicha jami 422 kern namunasi olingan va tahlil qilingan bulardan 27 ta namuna granulyar turdagi kollektor-jinslari namayonlangan, 34 ta namunada yoriqsimon o'tkazuvchanlik, qolgan 371 namuna nokollektor-jinslar bilan xarakterlanadi. Kern namunasini olish chastotasi 0,49 m burg'ulab o'tishda 1 ta namunani tashkil qiladi yoki olingan kern har bir 0,39 m ni tashkil qiladi.

**XVIII-2.** XVIII-2 pachka bo'yicha o'nta ( №2, 3, 4, 5, 6, 8, 9, 10, 1 Matonat quduqlar) quduqlar bo'yicha kolonkali o'tish amalga oshirilgan. Jami kern olish bilan bo'rg'ulab o'tish 174, 2 pog. m ni tashkil qiladi. Bunda 145,7 pog. m kern olingan bo'lib, burg'ulab o'tishni 83,6% ni tashkil qiladi yoki umumiy ochilgan qalinlikni 26,6% ni tashkil qiladi.

XVIII-2 pachkasi bo'yicha jami 370 kern namunasi olingan va tahlil qilingan bulardan 65 ta namuna granulyar turdagi kollektor-jinslari namayonlangan, 32 ta namunada yoriqsimon o'tkazuvchanlik, qolgan 273 namuna nokollektor-jinslar bilan

xarakterlanadi. Kern namunasini olish chastotasi 0,47 m burg‘ulab o‘tishda 1 ta namunani tashkil qiladi yoki olingan kern har bir 0,39 m ni tashkil qiladi.

XVIII-2 pachkasida 4 qduq atrofidagi 12 qatlam gazga to‘yingan hisoblanib kern materiallari bilan xarakterlanmagan.

Bu pachkada kollektor jinslarningn ochiq g‘ovakligi 370 ta kern namunasi orqali o‘rganilgan bo‘lib, bulardan 65 ta namuna kollektor jinslarning granulyar turiga mansub, 32 ta namuna bo‘yicha o‘tkazuvchanlik mavjud yoriqlar bilan bog‘liq va qolgan 273 ta namuna nokollektor jinslar bilan xarakterlangan. Nokollektor jinslar uchun g‘ovaklik o‘zgarish diapazoni 11% gacha tashkil qiladi va granulyar tur bilan bog‘liq kollektor jinslar uchun 7% dan 17 % gacha tashkil qiladi.

Yaxlit XVIII-2 pachka bo‘yicha g‘ovaklikning o‘rtacha qiymati quyidagicha: granulyar turdagi kollektor-jinslar uchun kollektorlar – 12,8%, yoriq o‘tkazuvchan jinslar uchun – 5,1 % va nokollektor jinslar uchun – 4,8%.

№4 quduq rayonida 12 qatlam chegarasida gazga to‘yinganlik aniqlangan. Bu qatlamning suvga to‘yingan qisimi bo‘yicha ochiq g‘ovaklik 27 ta kern namunasi bo‘yicha o‘rganilgan bo‘lib, bulardan 20 ta namuna kollektor jinslari g‘ovakligining o‘rtacha qiymati 13,5 5 ni tashkil qiladi, barik sharoitini hisobga olgan holda - 12,8% ni tashkil qiladi.

XVIII-2 pachka jinslarining o‘tkazuvchanligi 242 ta namuna bo‘yicha o‘rganilgan, bulardan 140 ta namuna paralell sloyluk bilan o‘tkazuvchanligi  $0,01 \times 10^{-3}$  mkm<sup>2</sup>dan kam ( 32 namuna perpendikulyar sloylangan), 28 ta namuna bo‘yicha o‘tkazuvchanlik yoriqlar mavjudligi bilan bog‘liq va 41 ta namuna parallel sloyligi granulyar turdagi kollektor jinslar bilan bog‘liqligi namayonlangan. Yoriqsimon namunalarga o‘tkazuvchanlik qiymati 0,32 dan  $320 \times 10^{-3}$  mkm<sup>2</sup> gacha o‘zgaradi, bu yerda o‘tkazuvchanlikning o‘rtacha qiymati 0,0182 mkm<sup>2</sup> ni tashkil qiladi. Granulyar turdagi kollektorlardan olingan namuna uchun o‘tkazuvchanlikning o‘zgaruvchanlik diapazoni 1 dan  $32000 \times 10^{-3}$  mkm<sup>2</sup> gacha tashkil qiladi, o‘tkazuvchanlikning o‘rtacha qiymati 0,1629 mkm<sup>2</sup> ga teng. №4 quduq rayonida 12 qatlam kern materiallari bilan tasiflanmagan. Bu qatlamning suvga to‘yingan qismi bo‘yicha o‘tkazuvchanlik 25 ta

namuna bo'yicha paralel sloylar va 1 namuna bo'yicha perpendikulyar sloylar o'rganilgan. Bulardan 19 ta namuna kollektor jinslarning granulyar turdagi kollektorlarni namayonlaydi va o'tkazuvchanlikning o'rtacha qiymati  $0,1833 \text{ mkm}^2$  ni tashkil qiladi, perpendikulyar sloylar bo'yicha 1 namuna bo'yicha  $0,0145 \text{ mkm}^2$  ni tashkil qiladi.

**XVIII-3.** XVIII-3 pachka bo'yicha o'nta quduqlar bo'yicha kolonkali o'tish amalga oshirilgan. Jami kern olish bilan bo'rg'ulab o'tish  $312,2 \text{ pog. m}$  ni tashkil qiladi. Bunda  $248,8 \text{ pog. m}$  kern olingan bo'lib, burg'ulab o'tishni  $83,6\%$  ni tashkil qiladi yoki umumiy ochilgan qalinlikni  $25\%$  ni tashkil qiladi.

XVIII-3 pachkasi bo'yicha jami 495 kern namunasi olingan va tahlil qilingan bulardan 42 ta namuna granulyar turdagi kollektor-jinslari namayonlangan, 37 ta namunada yoriqsimon o'tkazuvchanlik, qolgan 416 namuna nokollektor-jinslar bilan xarakterlanadi. Kern namunasini olish chastotasi  $0,63 \text{ m}$  burg'ulab o'tishda 1 ta namunani tashkil qiladi yoki olingan kern har bir  $0,5 \text{ m}$  ni tashkil qiladi.

XVIII-3 pachka chegarasida sanoat miqyosidagi gazlilik quyidagi qatlamlarga aniqlangan: XVIII-17 ( №1 qud.), XVIII-18 ( №№ 1, 9 qud. ), XVIII-20 (№№2, 9 qud. va 1 Matonat ), XVIII-21 (№2 qud).

XVIII-17 qatlamning umumiy ochilgan qalinligi barcha quduqlarda  $9,8 \text{ m}$  ni tashkil qiladi, shu bilan birga gazga to'yingan qalinlik –  $1,6 \text{ m}$ . Ko'riladigan qatlamda kolonkali burg'ulab o'tish uchta (№2, 9 va 2 Matonat) quduqlar bo'yicha amalga oshirilgan va jami  $3,8 \text{ pog.m.}$  ni tashkil qiladi. Bunda  $1,4 \text{ pog. m}$  kern olingan bo'lib, burg'ulab o'tishni  $36,8\%$  ni tashkil qiladi yoki umumiy ochilgan qalinlikni  $14,3\%$  ni tashkil qiladi.

XVIII-18 qatlamning umumiy ochilgan qalinligi barcha quduqlarda  $26,2 \text{ m}$  ni tashkil qiladi, shu bilan birga gazga to'yingan qalinlik –  $9,4 \text{ m}$ . Ko'riladigan qatlamda kolonkali burg'ulab o'tish to'rtta (№5, 6, 9 va 2 Matonat) quduqlar bo'yicha amalga oshirilgan va jami  $10,6 \text{ pog.m.}$  ni tashkil qiladi. Bunda  $4,9 \text{ pog. m}$  kern olingan bo'lib, burg'ulab o'tishni  $46,2\%$  ni tashkil qiladi yoki umumiy ochilgan qalinlikni  $16,4\%$  ni

tashkil qiladi. Qatlamning gazga to‘yingan qisimi bo‘yicha 1,5 pog. m. kern namunasi olingan yoki jami gazga to‘yinganlik qalinligini 16% ni tashkil qiladi.

XVIII-20 qatlamning umumiy ochilgan qalinligi 26,2 m ni tashkil qiladi, shu bilan birga gazga to‘yingan qalinlik – 8,4 m. Ko‘riladigan qatlamda kolonkali burg‘ulab o‘tish to‘rtta (№4, 5, 9 va 3 Matonat) quduqlar bo‘yicha amalga oshirilgan va jami 7,2 pog.m. ni tashkil qiladi. Bunda 5,9 pog. m kern olingan bo‘lib, burg‘ulab o‘tishni 81,9% ni tashkil qiladi yoki umumiy ochilgan qalinlikni 25,2% ni tashkil qiladi. Qatlamning gazga to‘yingan qisimi bo‘yicha 2 pog. m. kern namunasi olingan yoki jami gazga to‘yinganlik qalinligini 23,8% ni tashkil qiladi.

XVIII-21 qatlamning umumiy ochilgan qalinligi 11,4 m ni tashkil qiladi, shu bilan birga gazga to‘yingan qalinlik – 4,4 m. Ko‘riladigan qatlamda kolonkali burg‘ulab o‘tish 7,2 pog.m. ni tashkil qiladi. Bunda 4,2 pog. m kern olingan bo‘lib, burg‘ulab o‘tishni 67,7% ni tashkil qiladi yoki umumiy ochilgan qalinlikni 36,8% ni tashkil qiladi. Qatlamning gazga to‘yingan qisimi kern materiallari bilan tasiflanmagan.

Bu pachkada jinslarning ochiq g‘ovkligi 495 ta kern namunasi orqali o‘rganilgan bo‘lib, bulardan 42 tasi granulyar turdagi kollektor jinslar bilan bog‘liq. 37 namaunada o‘tkazuvchanlik yoriqlar miqdori bilan namayonlangan va qolgan 416 namunada nokollektor-jinslar tavsiflangan. Nokollektor-jinslar uchun g‘ovakligining o‘zgaruvchanlik diapazoni 1 % dan 10 % gacha va granulyar turdagi kollektor-jinslar uchun 9% dan 19 % gacha tashkil qiladi. XVIII-3 pachka bo‘yicha g‘ovaklikning o‘rtacha qiymati quyidagicha: granulyar turdagi kollektor-jinslar uchun – 13,4%; o‘tkazuvchanligi yoriqlar bilan bog‘liq jinslar uchun – 4 % va nokollektor-jinslar uchun – 2,9%.

GIS ma’lumotlari materallari asosida va qutuqlarni sinash natijalari ma’lumotlari bo‘yicha aniqlangan qumtosh qatlarining burchasi ham mahsuldor emas. XVIII-1 pachka (8, 9, 10, 11 qatlamlar) kollektorlarining barchasi nomahsuldor, XVIII-2 pachka 13,14, 15, 16 qatlamlar, XVIII-3 pachkadagi 23 qatlam mahsuldor emas.

Shunday qilib, XVIII gorizontda umumiy oltida qatlam mahsuldor bo‘lib, (kesim bo‘yicha quyidan yuqoriga 24, 21, 20, 18, 17, 12 qatlamlar) bulardan turli uchastkalarda alohida quduqlardan sanoat miqyosida gaz oqimi olingan. Qayid qilib o‘tilgan qatlamlar 1 metrdan 5 metrgacha qalinlikka ega.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ходжаев А.Р., Ақромходжаев А.М. ва б. Нефтяные и газовые месторождения Узбекистана. Ташкент-1974.
2. Проект поисков месторождений (залежей) нефти и газа на площади Дивалкак.
3. Султанов Ш.А., Салимов Б.О. ДХО ООО «Касанская НГРЭ».
4. Бикеева Л.Р., Усманов П.М. АО «ИГИРНИГМ».

